

**BUXORO DAVLAT UNIVERSITETI**  
**HUZURIDAGI ILMIY DARAJALAR BERUVCHI**  
**DSc.03/27.12.2025.P.08.10 RAQAMLI ILMIY KENGASH**  

---

**BUXORO DAVLAT UNIVERSITETI**

**NARMURADOVA RAYHON UKTAMOVNA**

**OILAVIY NIZOLARDA ERKAK VA AYOLLARNING SAVODXONLIK**  
**DARAJASIGA TAS'IR KO'RSATUVCHI PSIXOLOGIK**  
**DETERMINATLAR**

**19.00.05 – Ijtimoiy psixologiya. Etnopsixologiya**

**PSIXOLOGIYA FANLARI BO'YICHA FALSAFA DOKTORI (PhD)**  
**DISSERTATSIYASI AVTOREFERATI**

**Psixologiya fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD) dissertatsiyasi  
avtoreferati mundarijasi**

**Оглавление автореферата диссертации доктора философии (PhD) по  
психологическим наукам**

**Contents of Dissertation Abstract of the Doctor of Philosophy (PhD) on the  
Psychological Sciences**

**Narmuradova Rayhon Uktamovna**

Oilaviy nizolarda erkak va ayollarning savodxonlik darajasiga ta'sir ko'rsatuvchi  
psixologik determinantlar .....3

**Нармурадова Райхон Уктамовна**

Психологические детерминанты, влияющие на уровень грамотности мужчин  
и женщин в семейных конфликтах .....21

**Narmuradova Rayhon Uktamovna**

Psychological determinants affecting the literacy level of men and women in family  
conflicts..... 41

**E'lon qilingan ishlar ro'yxati**

Список опубликованных работ

List of published works.....45

**BUXORO DAVLAT UNIVERSITETI**  
**HUZURIDAGI ILMIY DARAJALAR BERUVCHI**  
**DSc.03/27.12.2025.P.08.10 RAQAMLI ILMIY KENGASH**  

---

**BUXORO DAVLAT UNIVERSITETI**

**NARMURADOVA RAYHON UKTAMOVNA**

**OILAVIY NIZOLARDA ERKAK VA AYOLLARNING SAVODXONLIK**  
**DARAJASIGA TAS'IR KO'RSATUVCHI PSIXOLOGIK**  
**DETERMINANTLAR**

**19.00.05 – Ijtimoiy psixologiya. Etnopsixologiya**

**PSIXOLOGIYA FANLARI BO'YICHA FALSAFA DOKTORI (PhD)**  
**DISSERTATSIYASI AVTOREFERATI**

**Falsafa doktori (PhD) dissertatsiyasi mavzusi O'zbekiston Respublikasi Fanlar akademiyasi huzuridagi Oliy attestatsiya komissiyasida B2024.1.PhD/P797 raqam bilan ro'yxatga olingan.**

Dissertatsiya Buxoro davlat universitetida bajarilgan.

Dissertatsiya avtoreferati uch tilda (o'zbek, rus, ingliz (rezyume)) Ilmiy kengash veb-sahifasida ([www.buxdu.uz](http://www.buxdu.uz)) va «ZiyoNet» axborot-ta'lim portalida ([www.ziynet.uz](http://www.ziynet.uz)) joylashtirilgan.

**Ilmiy rahbar:**

**Safarov Dilmurod Xalimovich**  
psixologiya fanlari doktori (DSc), professor

**Rasmiy opponentlar:**

**Saidov Azamat Ismoilovich**  
psixologiya fanlari doktori (DSc), professor

**Ashurov Ramziddin Ramazonovich**  
psixologiya fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD), dotsent

**Yetakchi tashkilot:**

**Ma'mun universiteti**

Dissertatsiya himoyasi Buxoro davlat universiteti huzuridagi DSc.03/2025.27.12.P.08.10 raqamli Ilmiy kengashning 2026-yil «19» avgust soat 14<sup>00</sup> dagi majlisida bo'lib o'tadi (manzil: 200118, Buxoro shahri, Muhammad Iqbol ko'chasi, 11-uy. Tel.: (+0365) 221-29-14; faks: (+0365) 221-27-57; email: [buxdu.rektor@buxdu.uz](mailto:buxdu.rektor@buxdu.uz)).

*Akbar* Dissertatsiya bilan Buxoro davlat universitetining Axborot-resurs markazida tanishish mumkin. (raqam bilan ro'yxatga olingan.) (Manzil: 200101, Buxoro viloyati, Buxoro shahri, Muhammad Iqbol ko'chasi, 11-uy. Tel.: (+0365) 221-29-14).

Dissertatsiya avtoreferati 2026-yil «3» avgust kuni tarqatildi.

(2026-yil «3» avgust dagi 33 - raqamli reyestr bayonnomasi).



**A.M. Nazarov**

Ilmiy kengash a'zosi, Ilmiy kengash raisi,  
psixologiya fanlari doktori (DSc), professor

**Sh.Sh. Rustamov**

Ilmiy kengash a'zosi, Ilmiy kengash kotibi,  
psixologiya fanlari doktori (DSc), dotsent

**A.A. Xuseynova**

Ilmiy kengash a'zosi, Ilmiy kengash qoshidagi  
Ilmiy seminar raisi, falsafa fanlari doktori (DSc),  
professor

## KIRISH (falsafa doktori (PhD) dissertatsiyasi annotatsiyasi)

**Dissertatsiya mavzusining dolzarbligi va zarurati.** Jahonda oilaviy nizolar sharoitida erkak va ayollarning psixologik savodxonlik darajasini oshirish, oila mustahkamligi va barqarorligini ta'minlashga qaratilgan ilmiy-amaliy tadqiqotlar ko'lami tobora kengayib bormoqda. UNICEF ma'lumotlariga ko'ra, bugungi kunda turli nizoli vaziyatlar, global va mahalliy ijtimoiy inqirozlar oila barqarorligiga jiddiy salbiy ta'sir ko'rsatmoqda. Makedoniyaning Skopje universiteti huzuridagi «Oilaviy tadqiqotlar instituti» tomonidan tashkil etilgan psixologik savodxonlik treninglarida qatnashgan juftliklarning 75 foizida oilaviy nizolarni konstruktiv hal etish ko'nikmalari shakllanganligi aniqlangan. Shu jihatdan, oilada erkak va ayol o'rtasidagi salbiy munosabatlarning ijtimoiy-psixologik asoslarini o'rganish, sog'lom, zamonaviy va namunali oila modellarini amaliyotga tatbiq etish, shuningdek, oila institutini mustahkamlashga qaratilgan innovatsion yondashuvlar asosida samarali yechimlarni ishlab chiqish dolzarb ilmiy-amaliy muammolardan biri hisoblanmoqda<sup>1</sup>.

Jahon ilmiy tadqiqot markazlari va oliy ta'lim muassasalarida turli ijtimoiy sharoitlarda nizolarni yuzaga keltiruvchi ijtimoiy-psixologik omillarni aniqlash, nizo turlarini tahlil qilish, nizolashuv darajasining oilaviy munosabatlarga salbiy ta'sirini o'rganish hamda nizoli holatlarning ijtimoiy-psixologik profilaktikasi masalalariga bag'ishlangan tadqiqotlar olib borilmoqda. Buyuk Britaniyaning «Family Center» tomonidan o'tkazilgan tadqiqotlar natijalariga ko'ra, psixologik savodxonlik darajasi yetarli bo'lmagan oilalarda nizoli vaziyatlar 30-40 foiz ko'proq kuzatilishi aniqlangan. Shu nuqtai nazardan, oilada va boshqa ijtimoiy muhitlarda nizoli holatlarning yuzaga kelish darajasini kamaytirishga qaratilgan samarali usullarni ishlab chiqish va qo'llash, oilalarning barbod bo'lish holatlari ortib borayotgan sharoitda oilaviy munosabatlarni mustahkamlashning ilmiy-amaliy hamda innovatsion mexanizmlarini takomillashtirish dolzarb ahamiyat kasb etmoqda<sup>2</sup>.

Respublikamizda so'nggi yillarda oila institutini mustahkamlash, oilalarda sog'lom ijtimoiy-psixologik muhitni shakllantirish, oilaviy qadriyatlarni rivojlantirish hamda shaxslararo munosabatlarni adekvat tashkil etish orqali oilaviy munosabatlar barqarorligini ta'minlash masalalariga davlat siyosati darajasida alohida e'tibor qaratilib, mazkur yo'nalishda zarur me'yoriy-huquqiy asoslar yaratildi. «...Biz uchun muqaddas bo'lgan oila asoslarini yanada mustahkamlash, xonadonlarda tinchlik-xotirjamlik, ahillik va o'zaro hurmat muhitini yaratish, jamiyat va oilada sog'lom va barqaror ijtimoiy-ma'naviy muhit hamda tinchlik, totuvlik va osoyishtalikni ta'minlash orqali oila institutini mustahkamlash, «Sog'lom oila – sog'lom jamiyat» g'oyasini hayotga tatbiq etishga yo'naltirilgan yagona davlat siyosatini olib borish» g'oyasi negizida oila mustahkamligini

---

<sup>1</sup> <https://www.unicef.org/protection/mental-health-psychosocial-support-in-emergencies>

<sup>2</sup> <https://www.gov.uk/>

ta'minlashga qaratilgan muhim vazifalarning belgilanganligi mazkur yo'nalishdagi ilmiy tadqiqotlarni yanada keng ko'lamda olib borishni taqozo etmoqda<sup>3</sup>.

O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2022-yil 28-yanvardagi PF-60-son «2022–2026-yillarga mo'ljallangan Yangi O'zbekistonning taraqqiyot strategiyasi to'g'risida»gi, 2020-yil 18-fevraldagi PF-5938-son «Jamiyatda ijtimoiy-ma'naviy muhitni sog'lomlashtirish, mahalla institutini yanada qo'llab-quvvatlash hamda oila va xotin-qizlar bilan ishlash tizimini yangi darajaga olib chiqish chora-tadbirlari to'g'risida»gi, 2022-yil 1-martdagi PF-81-son «Oila va xotin-qizlar bilan ishlash, mahalla va nuroniylarni qo'llab-quvvatlash tizimini takomillashtirish chora-tadbirlari to'g'risida»gi, 2022-yil 7-martdagi PF-87-son «Oila va xotin-qizlarni tizimli qo'llab-quvvatlashga doir ishlarni yanada jadallashtirish chora-tadbirlari to'g'risida»gi Farmonlari hamda faoliyatga oid boshqa me'yoriy-huquqiy hujjatlarda belgilangan keng ko'lamli strategik chora-tadbirlarni amalga oshirishda mazkur dissertatsiya tadqiqoti muayyan darajada xizmat qiladi.

**Tadqiqotning respublika fan va texnologiyalar rivojlanishining ustuvor yo'nalishlariga mosligi.** Mazkur tadqiqot respublika fan va texnologiyalar rivojlanishining I. “Axborotlashgan jamiyat va demokratik davlatni ijtimoiy, huquqiy, iqtisodiy, madaniy, ma'naviy-ma'rifiy rivojlantirishda, innovatsion g'oyalar tizimini shakllantirish va ularni amalga oshirish yo'llari” ustuvor yo'nalishiga muvofiq bajarilgan.

**Muammoning o'rganilganlik darajasi.** Mamlakatimizda oilaviy nizolarda erkak va ayolning psixologik savodxonlik darajasini o'rganish, o'zbek oilalarida o'zaro munosabat turlari va ijtimoiy-psixologik omillar, oiladagi psixologik muhitni sog'lomlashtirish muammosi bo'yicha D.U.Abdullayeva, R.A.Abdurasulov, X.U.Abdusamatov, O.A.Abdusattorova, F.A.Akramova, I.A.Jabborov, U.R.Ibaydullayeva, V.M.Karimova, F.R.Ro'ziqulov, A.T.Ruziqulova, M.S.Salayeva, O'.B.Shamsiyev, G'.B.Shoumarov va boshqalar tomonidan o'rganilgan.

Mustaqil Davlatlar Hamdo'stligi mamlakatlari psixologlaridan A.N.Antonov, G.M.Andreeva, S.Emilyanov, S.I.Golod, S.Kovalev, N.V.Malyarova, K.Mixanovich, N.N.Obozev, N.A.Svetkova, L.V.Tolstova, E.G.Tiyd, V.N.Ukolova, A.G.Xarchev va boshqalar tomonidan oilaviy munosabatlar psixologiyasi hamda oilaviy nizolarni vujudga keltiradigan ijtimoiy-psixologik omillar bo'yicha tadqiqotlar olib borishgan.

Jahon psixologiyasida A.Akinci-Cosgun, U.Baranczuk, G.E.Craig, M.Campbell, S.D.Kratochvil, K.M.Schafer, L.Bumpass, J.Quaet, T.C.Martin, R.C.Bean, D.E.Delis, E.T.Burgess, P.D.Wollin, L.G.Terman, M.Odema, G.Roland, T.Parsons va boshqalar tomonidan oiladagi nizoli vaziyatlar, ularning psixologik jihatlariga oid ilmiy tadqiqot ishlari olib borilgan.

---

<sup>3</sup> O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2020-yil 18-fevraldagi “Jamiyatda ijtimoiy-ma'naviy muhitni sog'lomlashtirish, mahalla institutini yanada qo'llab-quvvatlash hamda oila va xotin-qizlar bilan ishlash tizimini yangi darajaga olib chiqish chora-tadbirlari to'g'risida”gi PF-5938-sonli Farmoni // [www.lex.uz](http://www.lex.uz).

**Dissertatsiya mavzusining dissertatsiya bajarilayotgan oliy ta'lim muassasasining ilmiy tadqiqot ishlari bilan bog'liqligi.** Dissertatsiya tadqiqoti Buxoro davlat universiteti ilmiy-tadqiqot ishlari rejasiga muvofiq PZ-202005236-raqamli «Oila psixologiyasi fanidan multimedia mahsulotini yaratish» nomli innovatsion loyiha doirasida bajarilgan (2021-2022-yy.).

**Tadqiqotning maqsadi** oilaviy nizolarda erkak va ayollarning savodxonlik darajasiga ta'sir ko'rsatuvchi psixologik determinatlarini tadqiq qilish asosida amaliy tavsiyalar ishlab chiqishdan iborat.

**Tadqiqotning vazifalari:**

oilaviy nizolarni bartaraf etishdagi ayol va erkakning psixologik savodxonlik darajasini hissiy intellekt shakllanganligiga bog'liqligini tadqiq etish;

oilaviy nizolardagi er va xotinlarning psixologik savodxonlik darajasini kommunikativ kompetentlikka bog'liq tomonlarini tadqiq etish;

oilaviy nizolarda erkak va ayolning psixologik savodxonlik darajasini empirik jihatdan baholash;

ayol va erkaklarning psixologik savodxonligini oshirishga qaratilgan psixologik model va dastur ishlab chiqish.

**Tadqiqotning obyekti** sifatida oilaviy nizolarda erkak va ayollarning savodxonlik darajasiga ta'sir ko'rsatuvchi psixologik determinatlari belgilangan bo'lib, Navoiy viloyatidan 50 nafar, Buxoro viloyatidan 30 nafar hamda Samarqand viloyatidan 40 nafar, jami, 120 nafar oila vakillari respondent sifatida jalb etildi.

**Tadqiqotning predmetini** oilaviy nizolarda erkak va ayollarning savodxonlik darajasiga ta'sir ko'rsatuvchi psixologik determinatlari tashkil etadi.

**Tadqiqotning usullari.** Tadqiqot jarayonida kuzatish, suhbat, anketa, kontent-tahlil metodlaridan, shuningdek, K.N.Tomasning «Nizoli vaziyatlarni hal qilish usullarini aniqlash», Salovey va Mayerlarning «Emotsional intellektni baholash (EI)», Miller va Roloffning «Oila ichidagi kommunikatsiya qobiliyatlarini baholash» metodikalaridan hamda hammualiflikda ishlab chiqilgan (D.X.Safarov, R.U.Narmuradova) so'rovnomalaridan foydalanildi. Olingan natijalarning statistik ishonchlilik darajasi matematik-statistika metodlaridan Styudentning t-mezoni, K.Pirsonning r-korrelyatsiya koeffitsiyenti orqali tasdiqlandi.

**Tadqiqotning ilmiy yangiligi** quyidagilardan iborat:

er-xotinning psixologik savodxonligi ayol va erkaklarning o'zini anglaganligi o'zaro kelishuvni, hissiy barqarorlik esa hamkorlikni kuchayishiga olib kelishiga asoslanib nizoli vaziyatlardagi xulq-atvorning konstruktiv namoyon bo'lishini ta'minlashi dalillangan;

oilaviy nizolarni bartaraf etishdagi psixologik savodxonlik darajasi ayol va erkakning o'zini anglashi hissiy boshqarivni, hissiy barqarorlik esa oilaviy hayotdagi ijobiy motivatsiyani kuchayishiga olib kelganligi tufayli er va xotin emotsional intellektining shakllanganligiga bog'liq ekanligi isbotlangan;

oilaviy nizolardagi er-xotinning psixologik savodxonlik darajasi o'zaro muloqotda faol tinglash o'zini anglash, bir-birini qabul qilish, o'ziga adekvat baho

berish va hissiy barqarorlikka uyg'un namoyon bo'lishiga asoslanib, kommunikativ kompetentlikka bog'liq ekanligi isbotlangan;

oilaviy nizolarda erkak va ayolning psixologik savodxonligini oshirish uchun ijtimoiy rollar taqsimotida o'zaro ishonchning ustuvorligiga olib kelishiga asoslanib, «oilada barqaror ijtimoiy munosabatlarni ta'minlashga mo'ljallangan strukturaviy modelini kiritish zarurati isbotlangan.

**Tadqiqotning amaliy natijalari quyidagilardan iborat:**

tadqiqot jarayonida oilaviy nizolarda erkak va ayolning psixologik savodxonlik darajasini baholash va ularni rivojlantirish uchun metodologik yondashuvlar ishlab chiqilgan;

oilaviy nizolarda erkak va ayolning psixologik savodxonlik darajasini tadqiq qiluvchi metodikalar tizimlashtirilgan va amaliyotda qo'llanilgan;

oilaviy nizolarda erkak va ayolning psixologik savodxonlik darajasini oshirishga qaratilgan amaliy tavsiyalar ishlab chiqilgan.

**Tadqiqot natijalarining ishonchliligi** muammoning aniq qo'yilganligi; xalqaro miqyosida tan olingan metodik vositalar, ma'lumotlarning reprezentativligi; empirik tadqiqotlar ilmiy-nazariy chuqur asoslab berilganligi; aniqlangan ko'rsatkichlarning ishonchli, ilmiy manbalarga asoslanganligi; psixometrik talablarga javob beradigan psixodiagnostik usullardan foydalanilganligi; empirik natijalarning maqsadga muvofiq tahlil qilinganligi; natijalar «Ms Excel», «SPSS 22.0» dasturlari vositasida qayta ishlanganligi; ilmiy fikr va xulosalarning amaliyotga joriy etilganligi; olingan natijalarning vakolatli tuzilmalar tomonidan tasdiqlanganligi bilan izohlanadi.

**Tadqiqot natijalarining ilmiy-amaliy ahamiyati.** Tadqiqot natijalarining ilmiy ahamiyati shundaki, oilaviy munosabatlarda erkak va ayolning psixologik savodxonligini oshirish orqali nizolarni kamaytirishning o'ziga xos ijtimoiy-psixologik xususiyatlari haqidagi ilmiy tasavvurlarni to'ldiradi, oila psixologiyasi sohasidagi ilmiy izlanishlar, ijtimoiy psixologiya fanidagi shaxslararo munosabatlar va omillarning kompleks ta'siri haqidagi tasavvurlarni boyitadi hamda oiladagi sog'lom ijtimoiy-psixologik muhit mezonlari tizimini takomillashtirishga xizmat qiladi.

Dissertatsiya natijalarining amaliy ahamiyati oilaviy munosabatlarda erkak va ayolning psixologik savodxonligini oshirish, shaxslararo munosabatlarga xos xususiyatlarni o'rganish bo'yicha to'plangan nazariy va empirik ma'lumotlar milliy muhitda qo'llash uchun oila bilan bevosita hamkorlikda faoliyat yurituvchi ijtimoiy institutlar mutasaddilariga psixologik ma'rifat bo'yicha ishlarni amalga oshirishda qo'llanishi mumkinligi, «Oila psixologiyasi», «Ijtimoiy psixologiya», «Psixologik xizmat asoslari», «Psixologik maslahat va psixokorreksiya» fanlaridan o'quv qo'llanma, darsliklar tayyorlashda, psixologik lug'atlarni takomillashtirishda foydalanish mumkinligi bilan belgilanadi.

**Tadqiqot natijalarining joriy qilinishi.** «Oilaviy nizolarda erkak va ayollarning savodxonlik darajasiga ta'sir ko'rsatuvchi psixologik determinatlari» yuzasidan o'tkazilgan ilmiy tadqiqot natijalari asosida:

er-xotinning psixologik savodxonligi ayol va erkaklarning o'zini anglaganligi o'zaro kelishuvni, hissiy barqarorlik esa hamkorlikni kuchayishiga olib kelishiga asoslanib nizoli vaziyatlardagi xulq-atvorning konstruktiv namoyon bo'lishini ta'minlashi dalillanganligiga oid ma'lumotlar Nizomiy nomidagi O'zbekiston Milliy pedagogika universiteti huzuridagi Psixologiya o'quv-ilmiy markazining 2025-yil 12-apreldagi PM-332-son buyrug'i bilan «Ijtimoiy psixologiya» moduliga kiritilgan (Nizomiy nomidagi O'zbekiston Milliy pedagogika universiteti huzuridagi Psixologiya o'quv-ilmiy markazining 2025-yil 7-apreldagi PM-332a-son ma'lumotnomasi). Natijada oilaviy nizolarni bartaraf etishda emotsional intellekt omilining ahamiyati tadqiq qilingan;

oilaviy nizolarni bartaraf etishdagi psixologik savodxonlik darajasi ayol va erkakning o'zini anglashi hissiy boshqarivni, hissiy barqarorlik esa oilaviy hayotdagi ijobiy motivatsiyani kuchayishiga olib kelganligi tufayli er va xotinlar emotsional intellektining shakllanganligiga bog'liq ekanligi isbotlanganligiga oid takliflar Nizomiy nomidagi O'zbekiston Milliy pedagogika universiteti huzuridagi Psixologiya o'quv-ilmiy markazining 2025-yil 12-apreldagi PM-332-son buyrug'i bilan «Ijtimoiy psixologiya» moduliga kiritilgan (Nizomiy nomidagi O'zbekiston Milliy pedagogika universiteti huzuridagi Psixologiya o'quv-ilmiy markazining 2025-yil 7-apreldagi PM-332a-son ma'lumotnomasi). Natijada oilaviy nizolardagi er va xotinlarning psixologik savodxonlik darajasi kommunikativ kompetentlikka bog'liq tomonlari tadqiq etilgan;

oilaviy nizolardagi er-xotinlarning psixologik savodxonlik darajasi o'zaro muloqotda faol tinglash o'zini anglash, bir-birini qabul qilish o'ziga adekvat baho berish va hissiy barqarorlikka uyg'un namoyon bo'lishiga asoslanib, kommunikativ kompetentlikka bog'liq ekanligi isbotlanganligiga oid ma'lumotlar Nizomiy nomidagi O'zbekiston Milliy pedagogika universiteti huzuridagi Psixologiya o'quv-ilmiy markazining 2025-yil 12-apreldagi PM-332-son buyrug'i bilan «Ijtimoiy psixologiya» moduliga kiritilgan (Nizomiy nomidagi O'zbekiston Milliy pedagogika universiteti huzuridagi Psixologiya o'quv-ilmiy markazining 2025-yil 7-apreldagi PM-332a-son ma'lumotnomasi). Natijada oilaviy nizolarda erkak va ayolning psixologik savodxonlik darajasi empirik jihatdan baholangan;

oilaviy nizolarda erkak va ayolning psixologik savodxonligini oshirish uchun ijtimoiy rollar taqsimotida o'zaro ishonchning ustuvorligiga olib kelishiga asoslanib, «oilada barqaror ijtimoiy munosabatlarni ta'minlashga mo'ljallangan strukturaviy modelini kiritish zarurati isbotlanganligiga oid takliflar Nizomiy nomidagi O'zbekiston Milliy pedagogika universiteti huzuridagi Psixologiya o'quv-ilmiy markazining 2025-yil 12-apreldagi PM-332-son buyrug'i bilan «Ijtimoiy psixologiya» moduliga kiritilgan (Nizomiy nomidagi O'zbekiston Milliy pedagogika universiteti huzuridagi Psixologiya o'quv-ilmiy markazining 2025-yil 7-apreldagi PM-332a-son ma'lumotnomasi). Natijada ayol va erkaklarning psixologik savodxonligini oshirishga qaratilgan psixologik model va dastur ishlab chiqilgan.

**Tadqiqot natijalarining aprobatsiyasi.** Tadqiqot natijalari 2 ta xalqaro va 2 ta respublika ilmiy-amaliy konferensiyalarida muhokama etilgan.

**Tadqiqot natijalarining e'lon qilinganligi.** Dissertatsiya mavzusi bo'yicha jami 8 ta ilmiy ish, jumladan, O'zbekiston Respublikasi Oliy attestatsiya komissiyasining dissertatsiyalar asosiy ilmiy natijalarini chop etish tavsiya etilgan ilmiy nashrlarda 4 ta maqola, shundan 3 tasi respublika, 1 tasi xorijiy jurnallarda nashr etilgan.

**Dissertatsiyaning tuzilishi va hajmi.** Dissertatsiya tarkibi kirish, uchta bob, xulosa va tavsiyalar, foydalanilgan adabiyotlar ro'yxati hamda ilovalardan iborat. Dissertatsiyaning hajmi 135 betni tashkil etadi.

## DISSERTATSIYANING ASOSIY MAZMUNI

«**Kirish**» qismda dissertatsiya mavzusining dolzarbligi va zarurati asoslab berilgan, maqsadi va vazifalari belgilangan, tadqiqot metodlari, obyekti va predmeti ko'rsatilgan, uning O'zbekiston Respublikasida fan va texnologiyalar taraqqiyotining ustuvor yo'nalishlariga mosligi, tadqiqotda olingan natijalarning ilmiy yangiligi, amaliy natijalari, nazariy va amaliy ahamiyati, ishonchliligining asoslanishi, ularning amaliyotda tadbiq etilishi, ilmiy nashrlarda e'lon qilinganligi, dissertatsion tadqiqotning tuzilishiga oid ma'lumotlar keltirilgan.

Dissertatsiyaning «**Oilaviy nizolarda erkak va ayolning psixologik savodxonlik darajasini o'rganishning nazariy asoslari**» deb nomlangan birinchi bobida psixologik savodxonlik fenomenining ilmiy jihatdan o'rganilganlik darajasi, oilada ijobiy emotsional muhitni shakllantirish muammosining zamonaviy holati, oilaviy nizolarning kelib chiqish sabablari va ularni yuzaga keltiruvchi omillar, shuningdek, mazkur muammoning asosiy ilmiy yo'nalishlariga oid nazariy yondashuvlarning tahliliy sharhi bayon etilgan.

Jahon psixologiyasida E.Fromm, R.Shpis, G.Spenser, E.Teylor, Sh.Lerurno, E.Vestermak, D.Frezer, G.Ploss, M.Lisina, L.Saregorodseva, I.Zalisina, Y.Smirnova, A.Ruzskaya va boshqa olimlarning ilmiy izlanishlarida oilada erkak va ayol o'rtasidagi o'zaro munosabatlarning psixologik xususiyatlari, ularning shakllanishiga ta'sir etuvchi omillar hamda oilaviy munosabatlarning asosiy funksiyalari turli nazariy yondashuvlar asosida tahlil qilingan.

MDH olimlaridan L.Vigotskiy, A.Luriya, P.Blonskiy, S.Rubinshteyn, V.Miasishchev, D.Elkonin, A.Leontyev, V.Davidov, B.Ananyev, K.Kornilov, P.Galperin, V.Sukhomlinskiy, L.Bojovich, Y.Lotman va boshqalarning tadqiqotlarida zamonaviy oilaning tuzilishi, oila a'zolari o'rtasidagi shaxslararo munosabatlar hamda oilaviy muloqotning konstruktiv xususiyatlari ilmiy-nazariy jihatdan yoritilgan.

O'zbek olimlaridan D.J.Sharipova, G'.Shoumarov, O'.Shamsiyev, N.A.Sog'inov, T.M.Adizova, M.X.Fayziyeva, M.Sh.Rasulova, D.M.Anvarova, G.A.Qarshiboyeva, Y.No'monova va boshqa tadqiqotchilarning ilmiy ishlarida oila va oilaviy munosabatlarning shakllanishiga ta'sir etuvchi ijtimoiy-psixologik

omillar, oiladagi shaxslararo munosabatlarning xususiyatlari hamda oila barqarorligini ta'minlash masalalari ilmiy jihatdan tadqiq etilgan.

Dissertatsiyaning «Oilaviy nizolarda erkak va ayolning psixologik savodxonlik darajasini o'rganishning empirik asoslari» deb nomlangan ikkinchi bobida o'rganilayotgan muammoning empirik tahlili keltirilgan bo'lib, ushbu bobda tadqiqotning nazariy-metodologik asoslari, tadqiqotda qo'llanilgan metodlarning umumiy tavsifi, o'tkazish tartibi, olingan natijalarning tahlili va korrelyatsion bog'lanishlar tahlili o'z aksini topgan.

Tadqiqotning dastlabki bosqichida «Oilaviy nizolarda erkak va ayolning psixologik savodxonlik darajasini aniqlovchi so'rovnoma» orqali olingan dastlabki natijalar tahliliga o'tamiz.

#### 1-jadval.

#### «Oilaviy nizolarda erkak va ayolning psixologik savodxonlik darajasini aniqlovchi so'rovnoma»si orqali olingan natijalarning dastlabki statistik tahlili (n=120)

| Omillar             | O'rtacha (M)                  |                              | Farqlar |
|---------------------|-------------------------------|------------------------------|---------|
|                     | Erkaklar (n <sub>1</sub> =60) | Ayollar (n <sub>2</sub> =60) | t       |
| O'z-o'zini anglash  | 7,4                           | 5,3                          | -2,4*   |
| O'z-o'zini baholash | 7,8                           | 5,8                          | -2,6*   |
| Hissiy barqarorlik  | 7,9                           | 5,6                          | -2,3*   |

«Oilaviy nizolarda erkak va ayolning psixologik savodxonlik darajasini aniqlovchi so'rovnoma» orqali olingan natijalarning dastlabki statistik tahliliga ko'ra, «o'z-o'zini anglash» ( $t=-2,4$ ;  $p<0,05$ ), «o'z-o'zini baholash» ( $t=-2,6$ ;  $p<0,05$ ) hamda «hissiy barqarorlik» ( $t=-2,3$ ;  $p<0,05$ ) omillarida ishonchli va ahamiyatli farqlar aniqlandi.

Tahlil natijalariga ko'ra, «o'z-o'zini anglash» ( $t=-2,4$ ;  $p<0,05$ ) omili erkaklarda yuqori ko'rsatkichlarni namoyon etdi. Mazkur natija erkaklarning o'z emotsiyalarini anglash, nazorat qilish hamda ushbu emotsional tajribadan nizoli vaziyatlarni hal etishda foydalanish qobiliyati nisbatan yuqori ekanligini ko'rsatadi. O'z his-tuyg'ularini anglash ularga oilaviy nizolar sharoitida vaziyatni tahlil qilish, o'z nuqtayi nazarini aniq ifodalash va qarama-qarshi tomon bilan murosaga kelishda konstruktiv yondashuvlardan foydalanish imkonini beradi.

«O'z-o'zini baholash» ( $t=-2,6$ ;  $p<0,05$ ) omili bo'yicha ham erkaklarda yuqori natijalar qayd etildi. Bu ularning oilaviy nizolar jarayonida o'z imkoniyatlari, kuchli va zaif tomonlarini nisbatan obyektiv baholash, mavjud vaziyatni real tahlil qilish hamda qaror qabul qilishda o'z resurslarini hisobga olish qobiliyatini ifodalaydi. Mazkur xususiyat oilaviy munosabatlarda muammoli vaziyatlarga ongli yondashish va nizolarni samarali boshqarishga xizmat qiladi.

«Hissiy barqarorlik» ( $t=-2,3$ ;  $p<0,05$ ) omilida ham erkaklarning ko'rsatkichlari yuqori bo'lib, bu ularning stressli va nizoli vaziyatlarda emotsional muvozanatni saqlash qobiliyatini ko'rsatadi. Hissiy barqarorlik mojaroli holatlarda vazminlikni

saqlash, vaziyatga konstruktiv munosabat bildirish va nizoning keskinlashuvini kamaytirishga yordam beradi. Natijalar erkaklarning murakkab oilaviy vaziyatlarda emotsional nazoratni saqlash imkoniyati nisbatan yuqori ekanligini ko'rsatadi.

Umuman olganda, aniqlangan ishonchli farqlar erkaklarda «o'z-o'zini anglash», «o'z-o'zini baholash» va «hissiy barqarorlik» omillarining oilaviy nizolarni boshqarishdagi ahamiyatini ko'rsatadi. Mazkur psixologik xususiyatlar nizoli vaziyatlarni anglash, emotsional reaksiyalarni boshqarish va oqilona qaror qabul qilish bilan bog'liq bo'lib, oilaviy munosabatlarning barqarorligini ta'minlashga xizmat qilishi mumkin. Shu sababli oilaviy nizolar profilaktikasi va ularni konstruktiv hal etishga qaratilgan psixologik dasturlarda ushbu omillarni rivojlantirishga alohida e'tibor qaratish maqsadga muvofiq.

Tadqiqotning navbatdagi bosqichida «Oilaviy nizolarda erkak va ayolning psixologik savodxonlik darajasini aniqlovchi so'rovnoma» hamda K.N.Tomasning «Nizoli vaziyatlarni hal qilish usullarini aniqlash» metodikasi omillari o'rtasidagi korrelyatsion bog'lanishlar tahlil qilindi.

## 2-jadval.

### «Oilaviy nizolarda erkak va ayolning psixologik savodxonlik darajasini aniqlovchi so'rovnoma» hamda «Nizoli vaziyatlarni hal qilish usullarini aniqlash» metodikasi omillari o'rtasidagi aloqadorlik (n=120)

| Omillar             | O'z-o'zini anglash | O'z-o'zini baholash | Hissiy barqarorlik |
|---------------------|--------------------|---------------------|--------------------|
| Bahs-munozara       | 0,15               | -0,32*              | 0,13               |
| Hamkorlik           | 0,11               | 0,14                | 0,36*              |
| Kelishuv            | 0,34*              | 0,18                | 0,18               |
| O'zini chetga olish | 0,17               | 0,15                | -0,33*             |
| Moslashuv           | 0,18               | 0,34*               | 0,11               |

Izoh: \*  $p \leq 0,05$ ; \*\*  $p \leq 0,01$ .

«Oilaviy nizolarda erkak va ayolning psixologik savodxonlik darajasini aniqlovchi so'rovnoma» hamda «Nizoli vaziyatlarni hal qilish usullarini aniqlash» metodikasi o'rtasidagi korrelyatsion bog'lanishlar tahliliga ko'ra, «o'z-o'zini anglash» omili «kelishuv» ( $r=0,34$ ;  $p \leq 0,05$ ) omili bilan, «o'z-o'zini baholash» omili «moslashuv» ( $r=0,34$ ;  $p \leq 0,05$ ) omili bilan ijobiy, «bahs-munozara» ( $r=-0,32$ ;  $p \leq 0,05$ ) omili bilan salbiy, «hissiy barqarorlik» omili esa «hamkorlik» ( $r=0,36$ ;  $p \leq 0,05$ ) omili bilan ijobiy hamda «o'zini chetga olish» ( $r=-0,33$ ;  $p \leq 0,05$ ) omili bilan salbiy aloqadorlikni namoyon etdi.

«O'z-o'zini anglash» omilining «kelishuv» ( $r=0,34$ ;  $p \leq 0,05$ ) bilan ijobiy bog'liqligi shaxsning o'z emotsiyalari va xatti-harakatlarini anglash darajasi ortgani sari nizoli vaziyatlarda murosaga erishishga moyilligi ham kuchayishini ko'rsatadi. O'z his-tuyg'ularini anglay oladigan shaxslar vaziyatni xolisroq baholash, o'z pozitsiyasini nazorat qilish va qarama-qarshi tomonning nuqtayi nazarini hisobga

olish imkoniyatiga ega bo'ladilar. Bu esa oilaviy nizolarni keskinlashtirmasdan, konstruktiv muloqot va o'zaro kelishuv asosida hal etishga xizmat qiladi.

«O'z-o'zini baholash» omilining «moslashuv» ( $r=0,34$ ;  $p\leq 0,05$ ) bilan ijobiy korrelyatsiyasi o'z imkoniyatlarini adekvat baholay oladigan shaxslarning nizoli vaziyatlarga nisbatan moslashuvchan munosabat bildirishga moyilligini anglatadi. Bunday shaxslar mavjud sharoitni real baholash, o'z xatti-harakatlarini vaziyatga muvofiq boshqarish hamda oilaviy munosabatlarda murosali pozitsiyani egallash imkoniyatiga ega bo'ladilar. Shu sababli «o'z-o'zini baholash» va «moslashuv» o'rtasidagi ijobiy bog'liqlik nizolarni barqaror va konstruktiv yo'l bilan hal etishda muhim psixologik omil sifatida namoyon bo'ladi.

Shu bilan birga, «o'z-o'zini baholash» bilan «bahs-munozara» o'rtasidagi salbiy bog'lanish ( $r=-0,32$ ;  $p\leq 0,05$ ) o'zini adekvat baholash darajasi yuqorilagan sari nizoli vaziyatlarda bahslashish va qarama-qarshilikka asoslangan xulq strategiyalarining kamayishini ko'rsatadi. O'z imkoniyatlarini real baholay oladigan shaxslar nizoni keskinlashtirishdan ko'ra, muammoni tahlil qilish, vaziyatni nazorat qilish va maqbul yechim topishga ko'proq moyil bo'ladilar. Bu holat «o'z-o'zini baholash» oilaviy nizolarda destruktiv bahs-munozaralarning oldini olishga xizmat qilishi mumkinligini ko'rsatadi.

«Hissiy barqarorlik» omilining «hamkorlik» ( $r=0,36$ ;  $p\leq 0,05$ ) bilan ijobiy bog'liqligi emotsional jihatdan barqaror shaxslarning nizoli vaziyatlarda o'z his-tuyg'ularini boshqarish, qarama-qarshi tomon bilan konstruktiv muloqotni saqlash va muammoni birgalikda hal etishga intilishini anglatadi. Hissiy barqarorlik vaziyatga oqilona munosabat bildirish, nizoning keskinlashuviga yo'l qo'ymaslik va hamkorlikka asoslangan strategiyani tanlash imkoniyatini oshiradi.

«Hissiy barqarorlik» bilan «o'zini chetga olish» o'rtasidagi salbiy korrelyatsiya ( $r=-0,33$ ;  $p\leq 0,05$ ) esa hissiy barqarorlik darajasi ortishi bilan nizoli vaziyatlardan chekinish yoki muammoni hal etishdan qochish tendensiyasi kamayishini ko'rsatadi. Ya'ni, hissiy jihatdan barqaror shaxslar murakkab vaziyatlarda passiv pozitsiyani egallashdan ko'ra, nizoni bevosita muhokama qilish va konstruktiv yechim izlashga ko'proq moyil bo'ladilar. Bu jihat oilaviy nizolarni samarali boshqarishda hissiy barqarorlikning muhim ahamiyatga ega ekanligini tasdiqlaydi.

Umuman olganda, korrelyatsion tahlil natijalari «o'z-o'zini anglash», «o'z-o'zini baholash» va «hissiy barqarorlik» kabi psixologik savodxonlik omillarining oilaviy nizolarni hal etish strategiyalari bilan mazmunan bog'liqligini ko'rsatdi. Ushbu omillarning rivojlanganligi «kelishuv», «moslashuv» va «hamkorlik» kabi konstruktiv strategiyalarning kuchayishi, «bahs-munozara» hamda «o'zini chetga olish» kabi nisbatan samarasiz strategiyalarning esa kamayishi bilan tavsiflanadi. Bu natijalar oilaviy nizolar profilaktikasi va ularni konstruktiv hal etishga qaratilgan psixologik dasturlarda psixologik savodxonlikni rivojlantirish zarurligini asoslaydi.

«Oilaviy nizolarda erkak va ayolning psixologik savodxonlik darajasini aniqlovchi so'rovnomma» hamda Salovey va Mayer tomonidan ishlab chiqilgan «Emotsional intellektni baholash metodikasi» omillari o'rtasidagi korrelyatsion bog'lanishlar tahliliga ko'ra, «o'z-o'zini anglash» omili «hissiy boshqaruv» ( $r=0,34$ ;

$p \leq 0,05$ ) omili bilan, «o‘z-o‘zini baholash» omili «hissiy ong» ( $r=0,33$ ;  $p \leq 0,05$ ) omili bilan, «hissiy barqarorlik» omili esa «motivatsiya» ( $r=0,37$ ;  $p \leq 0,05$ ) omili bilan ijobiy aloqadorlikni namoyon etdi.

### 3-jadval.

**«Oilaviy nizolarda erkak va ayolning psixologik savodxonlik darajasini aniqlovchi so‘rovnoma» hamda Salovey va Mayer tomonidan ishlab chiqilgan «Emotsional intellektni baholash metodikasi» omillari o‘rtasidagi aloqadorlik (n=120)**

| Omillar          | O‘z-o‘zini anglash | O‘z-o‘zini baholash | Hissiy barqarorlik |
|------------------|--------------------|---------------------|--------------------|
| Hissiy ong       | 0,14               | 0,33*               | 0,15               |
| Hissiy boshqaruv | 0,34*              | 0,12                | 0,13               |
| Motivatsiya      | 0,13               | 0,16                | 0,37*              |
| Empatiya         | 0,18               | 0,19                | 0,15               |

Izoh: \*  $p \leq 0,05$ ; \*\*  $p \leq 0,01$ .

«O‘z-o‘zini anglash» omilining «hissiy boshqaruv» ( $r=0,34$ ;  $p \leq 0,05$ ) bilan ijobiy bog‘liqligi o‘z his-tuyg‘ularini anglay oladigan shaxslarning ularni samarali boshqarish qobiliyati ham yuqori bo‘lishini ko‘rsatadi. «O‘z-o‘zini anglash» darajasi rivojlangan shaxslar emotsiyalarini tanish, ularning kelib chiqish sabablarini tushunish va nizoli vaziyatlarda hissiy reaksiyalarini nazorat qilishga moyil bo‘ladilar. Bu esa oilaviy nizolarni hal etishda vaziyatni oqilona baholash, emotsional muvozanatni saqlash va konstruktiv qarorlar qabul qilish imkonini oshiradi. Mazkur bog‘lanish «o‘z-o‘zini anglash» qobiliyatining rivojlanganligi oilaviy muloqot samaradorligi va nizolarni yumshatishda muhim psixologik omil ekanligini ko‘rsatadi.

«O‘z-o‘zini baholash» omilining «hissiy ong» ( $r=0,33$ ;  $p \leq 0,05$ ) bilan ijobiy korrelyatsiyasi o‘z imkoniyatlarini adekvat baholay oladigan shaxslarning o‘z emotsiyalarini anglash va ularning manbasini tushunish qobiliyati ham yuqori ekanligini ifodalaydi. O‘zini obyektiv tahlil qila oladigan shaxslar o‘z his-tuyg‘ularini aniqroq idrok etish, ularni vaziyatga mos boshqarish va shaxslararo munosabatlarda ulardan oqilona foydalanishga qodir bo‘ladilar. «Hissiy ong»ning rivojlanganligi o‘zining hamda atrofdagilarning emotsional holatini tushunish imkonini berib, oilaviy nizolarda o‘zaro tushunish va murosaga erishishga yordam beradi. Shu jihatdan, «o‘z-o‘zini baholash» va «hissiy ong»ning uyg‘unligi oilaviy nizolarni konstruktiv hal etishda muhim ahamiyat kasb etadi.

«Hissiy barqarorlik» va «motivatsiya» ( $r=0,37$ ;  $p \leq 0,05$ ) o‘rtasidagi ijobiy bog‘lanish hissiy jihatdan barqaror shaxslarning murakkab va nizoli vaziyatlarda

ichki motivatsiyasini saqlab qolish qobiliyati yuqori ekanligini ko'rsatadi. Hissiy barqarorlik darajasi yuqori bo'lgan shaxslar stressli vaziyatlarda ham o'z maqsadlariga erishishga intilish, mavjud muammolarni hal qilish yo'llarini izlash va qiyinchiliklarga nisbatan qat'iyatli munosabat bildirishga moyil bo'ladilar. Bu esa oilaviy nizolarni hal etishda ijobiy motivatsiyani saqlash va muammolarga konstruktiv yondashish imkonini beradi. Mazkur korrelyatsiya «hissiy barqarorlik» va «motivatsiya»ning oilaviy munosabatlarni barqarorlashtirishda o'zaro bog'liq psixologik omillar ekanligini tasdiqlaydi.

Umuman olganda, aniqlangan korrelyatsion bog'lanishlar «o'z-o'zini anglash», «o'z-o'zini baholash» va «hissiy barqarorlik» omillarining emotsional intellektning «hissiy boshqaruv», «hissiy ong» hamda «motivatsiya» komponentlari bilan mazmunan bog'liqligini ko'rsatadi. Ushbu natijalar psixologik savodxonlik va emotsional intellektning o'zaro uyg'unligi oilaviy nizolarni konstruktiv hal etish, emotsional muvozanatni saqlash va oilaviy munosabatlar barqarorligini ta'minlashda muhim ahamiyatga ega ekanligini asoslaydi.

Demak, «Oilaviy nizolarda erkak va ayolning psixologik savodxonlik darajasini aniqlovchi so'rovnoma» hamda Miller va Roloffning «Oila ichidagi kommunikatsiya qobiliyatlarini baholash metodikasi» omillari o'rtasidagi bog'lanishlarga e'tiborimizni qaratamiz.

#### 4-jadval.

**«Oilaviy nizolarda erkak va ayolning psixologik savodxonlik darajasini aniqlovchi so'rovnoma» hamda «Oila ichidagi kommunikatsiya qobiliyatlarini baholash metodikasi» omillari o'rtasidagi aloqadorlik (n=120)**

| Omillar                          | O'z-o'zini anglash | O'z-o'zini baholash | Hissiy barqarorlik |
|----------------------------------|--------------------|---------------------|--------------------|
| Aktiv tinglash                   | 0,38*              | 0,07                | 0,18               |
| Qaror qabul qilishdagi munosabat | 0,09               | 0,34*               | 0,31*              |

Izoh: \*  $p \leq 0,05$ ; \*\*  $p \leq 0,01$ .

«Oilaviy nizolarda erkak va ayolning psixologik savodxonlik darajasini aniqlovchi so'rovnoma» hamda Miller va Roloffning «Oila ichidagi kommunikatsiya qobiliyatlarini baholash metodikasi» o'rtasidagi korrelyatsion bog'lanishlar natijalariga ko'ra, «o'z-o'zini anglash» omili «aktiv tinglash» ( $r=0,38$ ;  $p \leq 0,05$ ) omili bilan, «o'z-o'zini baholash» omili «qaror qabul qilishdagi munosabat» ( $r=0,34$ ;  $p \leq 0,05$ ) omili bilan, «hissiy barqarorlik» omili esa «qaror qabul qilishdagi munosabat» ( $r=0,31$ ;  $p \leq 0,05$ ) omili bilan ijobiy aloqadorlikni namoyon etdi.

«O‘z-o‘zini anglash» omilining «aktiv tinglash» ( $r=0,38$ ;  $p\leq 0,05$ ) bilan ijobiy bog‘liqligi shaxsning o‘z his-tuyg‘ularini anglash qobiliyati bilan suhbatdoshni tinglash va uning fikrlarini tushunish ko‘nikmalari o‘rtasida uzviy aloqa mavjudligini ko‘rsatadi. «O‘z-o‘zini anglash» darajasi yuqori bo‘lgan shaxslar muloqot jarayonida boshqalarning fikrlarini diqqat bilan tinglash, ularning emotsional holatini tushunish va nuqtayi nazarini hisobga olishga ko‘proq moyil bo‘ladilar. Bu esa oilaviy nizoli vaziyatlarda konstruktiv muloqotni saqlash, o‘zaro tushunishni kuchaytirish va murosaga erishishga yordam beradi. Mazkur korrelyatsiya «o‘z-o‘zini anglash» va «aktiv tinglash»ning oilaviy munosabatlarni barqarorlashtiruvchi o‘zaro bog‘liq psixologik omillar ekanligini ko‘rsatadi.

«O‘z-o‘zini baholash» omilining «qaror qabul qilishdagi munosabat» ( $r=0,34$ ;  $p\leq 0,05$ ) bilan ijobiy bog‘liqligi o‘z imkoniyatlarini adekvat baholay oladigan shaxslarning nizoli vaziyatlarda oqilona va asoslangan qarorlar qabul qilishga moyilligini anglatadi. «O‘z-o‘zini baholash» darajasi yuqori bo‘lgan shaxslar murakkab vaziyatlarda o‘z imkoniyatlarini real tahlil qilib, mavjud sharoitga mos qarorlarni shakllantirish va ularni amalga oshirishda barqarorlikni namoyon etadilar. Bu xususiyat oilaviy nizolarni bartaraf etishda aniq va mantiqiy yondashuvlardan foydalanish, muammoning maqbul yechimini aniqlash imkonini oshiradi. Shu jihatdan, «o‘z-o‘zini baholash» va «qaror qabul qilishdagi munosabat»ning uyg‘unligi oilaviy nizolarni konstruktiv hal etishda muhim ahamiyat kasb etadi.

